Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'ri	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулаходова Шохида</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari	878
<i>Mamatxunov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
Anvarova Dilfuza Akramjanovna	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	



PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li
FarDU doktranti

Annotatsiya: Maqolada pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. An'anaviy baholash usullari raqamli davr talablariga to'liq javob bermayotgani sababli, elektron nazorat vositalari, test platformalari, masofaviy monitoring tizimlari hamda sun'iy intellekt asosidagi baholash dasturlarini qo'llash zaruriyati ortib bormoqda. Tadqiqotda raqamli nazorat tizimlarining talabalarda o'zlashtirish samaradorligi, metakognitiv ko'nikmalar, mustaqil ishlash malakalari va kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar va mahalliy amaliyotlar tahlili asosida raqamli nazorat tizimlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli nazorat tizimi, pedagogik ta'lim, elektron baholash, masofaviy monitoring, sun'iy intellekt, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The article analyzes the effectiveness of using digital assessment systems in the process of pedagogical education. Since traditional assessment methods do not fully meet the requirements of the digital era, the use of electronic assessment tools, testing platforms, remote monitoring systems, and AI-based evaluation programs has become increasingly necessary. The study highlights the role of digital assessment systems in developing students' learning efficiency, metacognitive skills, independence, and creative thinking. Furthermore, based on an analysis of international experience and local practices, practical recommendations for improving digital control systems are proposed.

Key words: digital assessment system, pedagogical education, electronic evaluation, remote monitoring, artificial intelligence, learning efficiency.

Аннотация: В статье анализируется эффективность использования цифровых систем контроля в процессе педагогического образования. Поскольку традиционные формы оценки не полностью отвечают требованиям цифровой эпохи, всё более актуальным становится применение электронных средств контроля, тестовых платформ, систем дистанционного мониторинга и программ оценки на основе искусственного интеллекта. В исследовании рассматривается роль цифровых систем контроля в развитии у студентов эффективности усвоения, метакогнитивных навыков, самостоятельности и творческого мышления. Кроме того, на основе анализа международного опыта и отечественной практики разработаны рекомендации по совершенствованию цифровых систем контроля.

Ключевые слова: цифровая система контроля, педагогическое образование, электронное оценивание, дистанционный мониторинг, искусственный интеллект, эффективность обучения.

KIRISH

Pedagogik ta'lim jarayonida nazorat qilish tizimi ta'lim sifatini boshqarish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash hamda ularni muntazam ravishda rivojlantirish jarayonining ajralmas, markaziy komponenti sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tizim o'qituvchining pedagogik faoliyatini tahlil qilish, ta'lim jarayonining natijadorligini o'lchash, shuningdek, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nazorat jarayoni o'quv faoliyatining barcha bosqichlariga chuqur singib ketgan bo'lib, u nafaqat yakuniy natijalarni baholash, balki o'quvchilarning kognitiv, refleksiv, kommunikativ va amaliy kompetensiyalarini aniqlash hamda rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim paradigmasi inson kapitalini rivojlantirishga, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgani sababli, nazorat jarayonini takomillashtirishda an'anaviy baholash shakllaridan tashqari innovatsion yondashuvlar, xususan,

raqamli texnologiyalar asosidagi nazorat tizimlari muhim o'rin egallamoqda. Raqamli nazorat tizimlarini joriy etish nafaqat baholash jarayonini avtomatlashtirish va soddalashtirish, balki ta'lim sifatini tizimli monitoring qilish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi teskari aloqani tezkor hamda shaffof shaklda yo'lga qo'yish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida tashkil etilgan nazorat tizimlari yordamida baholashning obyektivligi, aniqligi va ishonchiligi sezilarli darajada ortadi. Masalan, elektron test tizimlari, adaptiv o'quv platformalari, avtomatik tahlil dasturlari, raqamli portfoliolar va masofaviy nazorat modullari talabalarning individual o'zlashtirish jarayonini kuzatish, ularning zaif tomonlarini aniqlash va shu asosda differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli nazorat mexanizmlari o'qituvchiga o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini vizual tahlil qilish, statistik hisobotlar tuzish va natijalarni boshqaruv qarorlarida qo'llash imkonini beradi. Raqamli nazorat tizimlarining yana bir muhim jihati – ta'lim jarayonining shaffofligini va adolatli baholashni ta'minlashidir. Avtomatlashtirilgan test tizimlari inson omiliga bog'liq subyektivlikni kamaytiradi, natijalarni tezkorlik bilan e'lon qilish imkonini beradi, bu esa talabada o'z o'qish natijalariga nisbatan ishonch va mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Shu bilan birga, nazorat tizimining raqamli modeli ta'lim sifati monitoringini amalga oshirishda, o'quv dasturlarining samaradorligini aniqlashda ham muhim analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli nazorat tizimlari talabalarning o'zlashtirish darajasi, kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari hamda mustaqil ishlash malakalarini aniqlashda yuqori samaradorlik beradi. Bunday tizimlar orqali baholash jarayoni an'anaviy test va yozma nazorat ishlari o'rniga interaktiv platformalar, onlayn testlar, virtual imtihon tizimlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, Learning Management System (LMS), Moodle, Canvas, Google Classroom yoki Blackboard kabi platformalar o'qituvchiga real vaqt rejimida talabalar faoliyatini kuzatish, topshiriqlarni baholash, ularning xatolarini avtomatik aniqlash va individual tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv o'qituvchining yuklamasini kamaytirib, baholashda inson omili bilan bog'liq subyektivlikni bartaraf etadi. Shuningdek, raqamli nazorat tizimlarining afzalliklaridan biri – adaptiv testlash mexanizmlaridir. Ular talabalar bilim darajasiga qarab savollarning murakkablik darajasini avtomatik ravishda o'zgartiradi. Bu esa ta'limning individuallashtirilgan modelini yaratish imkonini beradi. Talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, bilimni tahlil qiladi hamda o'zini-o'zi rivojlantirish yo'nalishlarini belgilaydi. Shu tarzda baholash jarayoni endilikda o'zini-o'zi nazorat qilish madaniyatini shakllantiruvchi pedagogik vositaga aylanmoqda. Raqamli nazorat tizimlarida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari ham tobora keng qo'llanilmoqda.

AI asosidagi baholash dasturlari matnli ishlarda plagiatni aniqlash, grammatik tahlil, mazmuniy moslik va kreativ fikrlash darajasini baholash imkonini beradi. Masalan, Turnitin va Unicheck kabi dasturlar o'quvchi ishini minglab manbalar bilan taqqoslab, natijani aniq hamda tezkor tarzda taqdim etadi. Shuningdek, AI asosida yaratilgan Chatbot va Learning Analytics modullari o'qituvchiga talabalar faoliyatini doimiy monitoring qilish, o'zlashtirishda kuzatilgan muammolarni erta aniqlash imkonini beradi. Masofaviy nazorat tizimlari ham bugungi raqamli ta'limda alohida o'rin tutadi. Masalan, pandemiya davrida butun dunyo oliy ta'lim muassasalari masofaviy imtihon tizimlarini joriy etdi. Proctorio, Exam.net va Safe Exam Browser kabi platformalar onlayn imtihonlarda talabani identifikatsiya qilish, yuzni aniqlash, kamera hamda mikrofon orqali nazoratni amalga oshirish imkonini yaratdi. Bunday tizimlar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Jumladan, HEMIS platformasi orqali talabalar reytingi, o'qituvchilarning baholash natijalari va o'quv jarayonining umumiy monitoringi yuritiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli nazorat tizimlarining joriy etilishi o'qituvchining rolini ham tubdan o'zgartirmoqda: endilikda u nazoratni bajaruvchi emas, balki baholash jarayonini boshqaruvchi, natijalarni tahlil qiluvchi va talabalarga refleksiv tavsiyalar beruvchi pedagogik diagnost vazifasini bajaradi. Bu jarayonda raqamli diagnostika, tahliliy modullar, big data texnologiyalari hamda vizual analitika vositalaridan foydalanish ta'limda yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli nazorat va baholash tizimlari ta'lim samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash hamda individual o'quv yondashuvini kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, AQSh universitetlarida baholash jarayonining 85 foizdan ortig'i Learning Management System (LMS) – ya'ni Canvas, Blackboard, Moodle, Coursera kabi raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Bu tizimlar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytiradi, baholash natijalarini tezkor qayta ishlash, analitik tahlil qilish hamda talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.



Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa adaptive learning va computer-based testing tizimlari keng joriy etilgan. Masalan, Finlyandiya, Germaniya, Estoniya va Niderlandiyada adaptiv testlash texnologiyalari yordamida har bir talabning bilim darajasi, o'quv sur'ati va psixologik holatiga moslashtirilgan topshiriqlar avtomatik tarzda shakllantiriladi. Natijada, baholash jarayoni individual, differensial va adolatli bo'lishi ta'minlanadi. Osiyo mamlakatlari – Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya bu borada eng ilg'or tajribaga ega. U yerda raqamli nazorat tizimlari sun'iy intellekt (AI), big data va learning analytics texnologiyalari bilan integratsiya qilingan. Misol uchun, Singapur Milliy Universitetida (NUS) AI asosidagi baholash tizimi talabalar faoliyatini real vaqt rejimida tahlil qilib, ularning o'quv motivatsiyasi, stress darajasi va emotsional barqarorligini aniqlaydi. Yaponiyada esa "Smart Education" dasturi doirasida baholash natijalari nafaqat akademik ko'rsatkichlar, balki o'quvchining fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv darajasini ham o'lchaydi.

Janubiy Koreyada "Digital Learning Analytics Center" tizimi o'qituvchilarga har bir talabaga mos individual o'quv yo'nalishini taklif etish imkonini beradi. Ushbu ilg'or tajribalar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Xususan, ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali baholash jarayonining obyektivligini oshirish, o'qituvchi faoliyatini raqamli ma'lumotlarga asoslangan tahlil qilish, talabalarning kognitiv, motivatsion va emotsional holatini monitoring qilish, ta'lim sifatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatlarini yaratish mumkin. O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda raqamli nazorat infratuzilmasi bosqichma-bosqich takomillashmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimining barcha bosqichlariga raqamli platformalar joriy qilinmoqda. HEMIS, EduMarket, my.edu.uz kabi tizimlar orqali talabalarning o'zlashtirish reytinglari, elektron jurnallar, test natijalari va plagiat tekshiruvlari yuritilmoqda. Ayrim universitetlarda, xususan, Farg'ona davlat universitetida MyTest, iSpring, Camtasia, Google Form va Kahoot kabi dasturlar asosida interaktiv testlash tizimlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda blended learning (aralash o'qitish) modeli asosida onlayn va an'anaviy nazorat shakllari integratsiya qilinmoqda. Raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini 20–25 foizga, talabalar mustaqil ishlash ko'nikmasini esa 30 foizga oshirgan. Bundan tashqari, o'qituvchilar baholashga sarflaydigan vaqt 40 foizga qisqargan, bu esa ularga metodik va ilmiy faoliyat bilan ko'proq shug'ullanish imkonini bergan. Raqamli baholash tizimlari talabalarning o'zini-o'zi nazorat qilish, tanqidiy tahlil, refleksiv fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim psixopedagogik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish zamonaviy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bunday tizimlar nafaqat baholash jarayonini avtomatlashtiradi, balki shaffoflik, tezkorlik, obyektivlik va individual yondashuvni ta'minlaydi. Shu sababli, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli nazorat infratuzilmasini kengaytirish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, metodik qo'llanmalar yaratish hamda sun'iy intellekt (AI) asosida baholash modullarini joriy etish dolzarb strategik vazifalardan biridir. Natijada, raqamli nazorat tizimlari kelajakda ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kognitiv va ijodiy salohiyatini yuksaltirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini kompleks tarzda boshqarishning eng ishonchli vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2018. – 92 p.
2. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. Brussels: EC, 2020. – 74 p.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001. – 352 p.
4. Buckingham, D. Teaching Media in a Digital Age. Cambridge: Polity Press, 2019. – 240 p.
5. Saidov, U. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 210 b.
6. Islomova, M. Oliy ta'limda elektron nazorat tizimlarining samaradorligi. Toshkent: Universitet, 2022. – 188 b.
7. OECD. Digital Education Outlook 2023: Learning in the Age of AI. Paris: OECD Publishing, 2023. – 178 p.
8. Karimov, B. Raqamli ta'lim muhitida baholash tizimlarini modernizatsiya qilish. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2024. – 156 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.